

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

IBROHIMOV Davronbek Muhammadi o'g'li*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**mustaqil tadqiqotchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.15356958>

TIJORAT BANKLARI AKTIVLAR BO'YICHA EHTIMOLIY YO'QOTISHLARGA DOIR ZAHIRANI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini ta'minlash, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasiining adekvatligi ularning moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashning zarurligi hozirgi kundagi dolzarb masalalardina biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklari aktivlarini samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqigan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank, bank aktivlari, tavakkalchilik, milliy iqtisodiyot, bank portfeli, aktivlar sifati, bank tizimi, kredit portfeli, investitsiya.

СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЗЕРВА КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА ВОЗМОЖНЫЕ ПОТЕРИ АКТИВОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается необходимость обеспечения качества портфелей активов коммерческих банков, адекватности резервов вероятных потерь по активам, обеспечения их финансовой устойчивости и ликвидности. Он также разработал научные предложения и практические рекомендации по способам повышения эффективности активов коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банк, банковские активы, риск, национальная экономика, банковский портфель, качество активов, банковская система, кредитный портфель, инвестиции.

WAYS TO FORM A RESERVE OF COMMERCIAL BANKS FOR POSSIBLE ASSET LOSSES

ANNOTATION

This article discusses the importance of ensuring the quality of commercial bank asset portfolios and adequate reserves for potential asset losses in order to maintain financial stability and liquidity. It also presents scientific proposals and practical recommendations for improving the efficiency of bank assets.

Keywords: commercial banks, bank, banking assets, risk, national economy, banking portfolio, asset quality, banking system, loan portfolio, investments.

Kirish

Tijorat banklarining faoliyati asosan ularning aktivlaridan samarali foydalanishga bog‘liq. Bank aktivlari – bu bankning iqtisodiy resurslaridir, ya’ni mablag‘lar, kreditlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalar. Aktivlar samaradorligini oshirish, bankning rentabelligini va barqarorligini ta’minlash uchun zarurdir. Samarali aktiv boshqaruvi nafaqat bankning moliyaviy holatini yaxshilaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida “...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘shishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash” ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan [1].

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri – yuqori darajada foyda olishga yo‘naltirilgan, qaratilgan bo‘ladi. Biroq, bularning faoliyati doimo foyda ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lmasdan, ular faoliyatida zarar ko‘rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo‘lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko‘rish ehtimoli yuqori darajada bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda koeffitsient usuli yordamida risk va noaniqlik sharoitlarida bank faoliyati moliyaviy natijalariga boshqaruv ta’sirini aniqlash va qator boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash talab etiladi. Ta’kidlash joizki, ayrim iqtisodchi olimlar risk va beqarorlik sharoitida nisbiy ko‘rsatkichlarni afzal biladi.

J.K. Van Xorn va J.M. Vaxovich fikriga ko‘ra, rentabellik ko‘rsatkichlari yakuniy natijalarni foydadan ko‘ra to‘laroq tavsiflaydi. Chunki ularning hajmi kiritilgan kapital yoki iste’mol qilingan resurslar bilan samaraning nisbatini aks ettiradi. Ular tashkilot faoliyatini baholash uchun ham, investitsiya siyosati vositasi sifatida ham foydalaniladi. Rentabellik iqtisodiy toifa, baholash natijaviy ko‘rsatkichi va turli moliyalashtirish manbasi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijaviy ko‘rsatkich sifatida u mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi, biznes yuritish samaradorligini va faoliyat hajmining o‘shishini (pasayishini) aks ettiradi [2].

Masalan, O.N. Yefimova, A.D. Sheremet «rentabellik», «daromadlilik», «samaradorlik», «foydalilik» tushunchalarini bir-biridan ajratmaydi va ulardan sinonim sifatida foydalanadi [3].

Valeriy va Vitaliy Kovalevlar foydalilikni biznesning «foйда qilish», ya’ni moliyaviy natija – biznes muvaffaqiyatining dalolati hosil qilish imkoniyati va qobiliyati sifatida tavsiflaydi. [4]

Yuqoridagi iqtisodchilarning fikrlarini tahlil qilgan holda ta’kidlash mumkinki, tijorat banklari faoliyat natijaviyligiga baho berishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri rentabellik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Rentabellik - tijorat banklari foydalilik darajasini tavsiflaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob-kitob qilinadi.

Tijorat banklari rentabelligi darajasini tahlil qilish keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu qanchalik chuqur o‘rganilsa, shuncha amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan foydali takliflar vujudga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan bank aktivlari daromadlilikini tahlil qilish usullarini tadqiq etish dolzarb mavzu hisoblanadi.

Rentabellik va foyda ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha omillarni aniqlash, bu omillarni samaradorlikning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlariga ta’sirini hisoblash uslubiyotini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, sarroflik idoralari ushbu to‘plangan pul mablag‘larini boshqa shaxslarga qarzga berish va olish amaliyotlarini ham boshlashdi.

Asta-sekin turli xildagi ssudalarni berish va pul mablag'larini jalb qilish hisobidan sarroflik ishi kengayib, kreditlar beruvchi, omonatlarni qabul qiluvchi va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar paydo bo'la boshladi. Moliyaviy munosabatlarning bu tartibda rivojlanishi hozirgi banklarning aktiv amaliyotlarini shakllanishiga asos soldi [5].

Kreditning samaradorligi masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan. Professor O.I. Lavrushinning fikriga ko'ra, kreditning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjud bo'lib, ular orasida muammoli kreditlar va kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar muhim o'rin egallaydi [6].

Professor N.E. Soklinskayaning xulosasiga ko'ra, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit yig'ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish kreditning sifat mazmunini ta'minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi [7].

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari kredit portfelining sifatini ta'minlashda kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy darajalarini ta'minlash va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqarorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Taniqli iqtisodchi olimlarning yuqorida qayd etilgan ilmiy-nazariy qarashlaridan xulosa qilish mumkin, tijorat banklari aktivlarining samaradorligini ta'minlashda kredit riskining past va barqaror darajasini ta'minlash hamda kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqarorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi adegvatligi tahlili va zarur hollarda qo'shimcha zahiralarning yaratilishi davriy ravishda kamida oyiga 1 marotaba amalga oshirilishi lozim. Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan rezervga nisbatan aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi faktlar va sharoitlar aniqlangan holda rezervga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Umidsiz, deb tasniflangan kreditlar (aktivlar) hisobdan chiqarilishi va tegishli zahirlar darhol kamaytirilishi kerak. Xarajatlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi kerak. Aktivning hisobdan chiqarilishi ssuda qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi. Agar ssuda(aktiv) noto'g'ri tasniflangan bo'lsa, qo'shimcha kreditlash va bankning ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz na joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar shaklida, na yangi kredit shaklida bank qarzdorga qo'shimcha mablag'lar berishi mumkin emas. Biroq, bank bankdagi depozit yoki bank nazorati ostidagi ssuda (aktivni) yaxshi ta'minlovchi boshqa garov bilan ta'minlangan qo'shimcha kredit bergan taqdirda yangi ssuda boshqa kreditlar noto'g'ri tasniflangan hollarda ham "yaxshi" deb tasniflanishi mumkin.

Markaziy bank muayyan ssudalarning yanada qat'iyroq tasniflanishini yoki quyida keltirilgan noqulay faktlar va hollarning hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan zahiraga qo'shimcha chegirmalarni ajratishni talab qilishi mumkin:

- bank kredit portfeli umumiy holatining yomanlashuvi;
- kreditlar berish adekvat bank tadbirlarining o'zgarishi yoki yo'qligi;
- shunga o'xshash ssudalar, masalan, ushbu sohaga berilgan bo'yicha bank ko'rgan amaldagi zararlar;

- bank rahbariyatining muammoli ssudalarni o'ndirishga noqobilligi;
- yirik ssudalarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki jo'g'rofik mintaqada katta miqdorda to'planishi;
- taqdim etilgan bank hisobotini tahlil qilish yoki Markaziy ban nazoratchilari tomonidan o'tkazilgan qarzdorning yohud bankning o'zining moliyaviy ahvoriga taalluqli inspeksiyalar natijasida aniqlangan boshqa holatlar.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralari ajratmalar "Ehtimoliy zararlarni baholash" hisobraqami orqali bank xarajatlariga kiritilishi va joriy davr uchun "Foydalar va zararlar to'g'risidagi hisobot"ning "Aktivlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash" satrida aks ettirilishi lozim.

Zahiralarning noadekvatligi hollarida bank tomonidan zahiralarning etishmovchiligi aniqlangan davrda zahiralarga qo'shimcha ajratmalar qilinishi zarur. Bu "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini debetlash va "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar bank aktivlari portfeli tahlil qilinganidan keyin uning zahiralari talab qilinganidan ortiq bo'lsa, u holda bank "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini debetlashi va "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini kreditlashi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralarning adekvat darajasini doimiy ravishda ushlab turishning ta'minlanishi uchun to'liq javobgarlik Bank kengashiga yuklatiladi.

Boshqaruv tomonidan Kredit qo'mitasi va bank Kengashi bilan kelishilgan holda kredit yoki boshqa aktivni to'liq summada ishonchsiz deb ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilinsa (Kengash qarori Kengash majlisi bayonnomasida belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim), u holda ushbu aktiv "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralari" hisobraqamini debetlash va tegishli aktiv hisobraqamini kreditlash yo'li bilan balansdan chiqarilishi zarur. Zahira summasi ehtimoliy yo'qotishlarga etishmovchiligi hollarida ushbu Tartibga muvofiq qo'shimcha ajratmalar qilinishi lozim. Hisobdan chiqarilayotgan aktiv bo'yicha olinadigan hisoblab yozilgan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisobraqami ham bir vaqtning o'zida ushbu muayyan aktiv bo'yicha "Olinadigan hisoblab yozilgan foiz" hisobraqamini kreditlash va "Foizli daromad" hisobraqamini debetlash yo'li bilan yopilishi zarur.

Ssuda qarzi va hisoblab yozilgan foizlarning bankning balansidan chiqarilishi ssuda va foizlar bo'yicha qarzlarning bekor qilinishi emas. Shuning uchun ko'rsatilgan qarz u hisobdan chiqarilgan vaqtdan boshlab besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida balansdan tashqari hisobraqamlarda aks ettirilishi lozim. Bank asosiy qarz va ushbu hisobdan chiqarilgan kredit bo'yicha foizlarni o'ndirish uchun barcha urinishlarni qo'llashi zarur. Bank qarzdor majburiyatining to'liq summasini to'g'ri aks ettirish uchun mazkur aktivga (balans ortida) foizlar hisoblab yozishni davom ettirishi mumkin.

Bunda bank muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta, qarzdor mijozga balansdan tashqari hisobraqamlardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va olinadigan hisoblab yozilgan foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzning mavjudligini tasdiqlovchi ko'chirmani yuborishi lozim. Ushbu ko'chirmalar bankning muddati o'tgan qarzlarni o'ndirib olish bo'yicha (da'vo qilish muddati davomida) sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo'ladi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda har bir tijorat bankining maqbul faoliyat ko'rsatishi bank tizimini turli iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga moslasha olishi, raqobatdoshlik ko'rsatkichlarini saqlab qolishiga bevosita bog'liq. Banklarda optimal aktivlar portfelini shakllantirishda, eng avvalo, aktiv amaliyotlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim, chunki har bir aktiv amaliyotlar muayyan ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar samaradorligiga omillar ta'sirini muntazam ravishda tadqiq etib borishning iqtisodiy zaruratini yuzaga keltiruvchi bir jihatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, yuqori daromad keltiruvchi aktivlar yuqori risk darajasiga ega bo'ladi. Bank tomonidan amalga oshirilgan har bir aktiv amaliyot mijozlar faoliyatidagi o'zgarishlar ta'sirida sifat darajasini shakllantirib boradi.

Ikkinchidan, bank qonunchiligidagi va moliya bozorida o'zgarishlar bank tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantirish strategiyasini joriy etish imkoniyatlarini pasaytirish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday holatda bank rahbariyatiga ichki va tashqi omillar o'zgarishi bo'yicha muntazam ravishda axborot taqdim etib borish zarur.

Uchinchidan, bank infratuzilmasini kengaytirish, yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan avval chuqur asoslangan omilli tahlil o'tkazish talab etiladi. Bunday tahlil bankni yirik moliyaviy yo'qotishdan saqlaydi. Tadqiqotlar bugungi kunda ayrim tijorat banklarida aktivlar samaradorligiga omillar ta'sirini kompleks baholash borasida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.


Jahon moliya bozorida yuzaga kelgan qat'iylashuv sharoitlari tufayli tijorat banklari tomonidan tashqi mablag'larni jalb etish xarajatlari ortdi. Buning hisobiga banklarning tashqi mablag'lar jalb etish sur'ati sekinlashib, norezidentlar oldidagi majburiyatlari kamayib bormoqda. Bundan tashqari, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlari hajmining pasayishiga o'tgan yilda joylashtirilgan norezident mablag'larining 1,2 mlrd dollarga kamayishi ham sabab bo'lgan.

Natijada, joriy yil 1 iyul holatiga tijorat banklarining yalpi tashqi majburiyatlarining yillik o'sish sur'atlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16 foiz bandga pasaydi.

Tijorat banklari aktivlar rentabelligi shakllanishida sof foizli daromadlar hissasi barqaror ravishda yuqori bo'lib kelmoqda. Xususan, 2023 yil 1 iyul holatiga ushbu ko'rsatkichning jami aktivlardagi ulushi 4,8 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bank aktivlari rentabelligining shakllanishida banklarning sof foizsiz daromadlari 5,4 foiz bandga oshiruvchi omil bo'ldi. Umuman olganda, sof foizli va foizsiz daromadlar oshganligi, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun yaratilgan zaxiralarning kamayganligi banklarning yuqori operatsion xarajatlarini qoplashga imkon berdi.

Natijada, aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi deyarli o'zgarishsiz shakllandi. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsientida (NSFR) pasayish kuzatildi. 2023 yilning 1 iyul holatiga ushbu ko'rsatkich 2022 yilning mos davriga nisbatan 6 foiz bandga kamaydi va 110 foizni tashkil etdi.

Ushbu holat bank tizimining uzoq muddatli aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish imkoniyati biroz pasayganligini ko'rsatdi. Barcha banklarning 25 va 75 protsentil chegaralari bo'yicha NSFR ko'rsatkichi tahlil qilinganda, bank tizimi hamda TAMB uchun sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsientlari quyi 25 protsentil chegaraga yaqin shakllanganligini ko'rish mumkin.




1-rasm. Mamlakat bank tizimi bardoshlilik holati¹

Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti ko'rsatkichi 3,8 foiz bandga pasaydi. Yuqori likvidli aktivlar hajmining kamayishi hisobiga likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti ko'rsatkichida keskin pasayish kuzatilib, 2023-yil so'ngida 165 foizni tashkil etdi. 2023-yilda regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyentida deyarli o'zgarish kuzatilmadi va 2022-yil yakuniga nisbatan atigi 0,3 foiz bandga kamaygan.

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasida aktivlar o'sishining sekinlashishi va to'lovlari 31 kundan ortiq muddatga kechikkan aktivlar hajmining ortishi bilan bog'liq xatarlar biroz ortganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2023 yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o'sish sur'ati 2022 yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, substandart va undan quyi tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023 yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan.

Milliy tijorat banklar faoliyatida aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadlilik, likvidligi va ularning dinamikasini o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bank aktivlar tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushunilib, bankning aktiv va majburiyatlari risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari



2-rasm. Bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining dekompozitsiyasi², foizda

Bank sektori bo'yicha 2023-yil yakunida ROA ko'rsatkichi 2,6 foizni tashkil etdi. ROA dekompozitsiyasiga ko'ra, tijorat banklari ROA shakllanishida sof foizli va foizsiz daromadlar hissasi yuqori bo'lgan. Operatsion xarajatlar hamda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar esa ROA ko'rsatkichini pasayishiga ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek kapital monandlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendensiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshlilik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023 yilning 1 iyul holatiga regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklarning likvidlilik holatini aks ettiruvchi likvidlilikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientlari ko'rsatkichlari pasaydi.

Xulosa

Bank tizimining asosiy maqsadi bo'lib tijorat banklarining muammoli kreditlarini ajratib, chiqarib olish hisoblanadi. Sotib olingan kreditlar korporatsiyaning qarz majburiyatlari yoki aksiyalariga, yoxud bevosita hukumatning qarz majburiyatlariga almashtiriladi. Mazkur yondashuvning afzalligi bo'lib muammoli kreditlarni tez ajratib olish imkoniyatining mavjudligi, kamchiligi bo'lib esa alohida tuzilmani shakllantirish uchun qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi hamda restrukturizatsiya jarayonining uzoq davom etishi hisoblanadi.

Muammoli qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajribaning tahlili kredit portfelida muammoli kreditlari mavjud banklar sonining ko'pligida va sotib olinayotgan aktivlar o'xshashligining ma'lum darajasida restrukturizatsiyaning bunday usuli ko'proq ma'qul bo'lishini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash hajmi tez sur'atlarda oshib bormoqda. Bu holatning asosiy sabablari chakana kreditlash taomillarining nisbatan soddaligi va yuqori qiymatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois ko'pchilik banklar, ayniqsa, xususiy banklar aholining daromadli qatlami joylashgan hududlarda tezkor xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil etish orqali raqobatda ustunlikka erishmoqda. Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati qaroriga ko'ra markazlashtirilgan resurslar yohud boshqa mablag'lar hisobidan berilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan aktivlarning bankning balansidan chiqarilishi Markaziy bank yohud Hukumat oldidagi qarzlarning bekor qilinishi emas.

² <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari

Bank Markaziy bank yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumati oldidagi qarzlarni xatto agar ushbu mablag‘lar hisobidan berilgan kreditlar ilgari tuzilgan kredit shartnomalariga muvofiq to‘lanmagan bo‘lsa ham qaytarishi shart. Agar qzrdor balans ortida hisoblanadigan aktiv bo‘yicha karzni u hisobdan chiqarilganidan keyin 5 yil davomida to‘lasa, u holda ushbu aktiv (asosiy qarzlarni ham, foizlar ham) balansdan tashqari hisobraqamlardan chiqariladi. Agar qzrdor ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira barpo etilganaktiv bo‘yicha qarzlarni hisobraqamiga to‘lasa va qarz tijorat bankining malansidan chiqarilmagan bo‘lsa, u holda “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarni” hisobraqami debetlanadi va “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarga ajratmalar” hisobraqami kreditlanadi.

Agar qzrdor ushbu aktiv balansdan to‘liq chiqarilganidan keyin qarzlarni hisobraqamiga to‘lasa, u holda bank tomonidan “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarni” hisobraqami kreditlanadi, tegishli aktiv hisobraqami, masalan qarzni to‘lash uchun pul olinishini aks ettirish kassasi hisobraqami debetlanadi va, oqibatda, bank tomonidan “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarni” hisobraqami debetlanadi va “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarga ajratmalar” hisobraqami kreditlanadi, bu bilan shu vaqtgacha balansdan chiqarilgan zararlar bank daromadlari oqimiga qaytariladi.

Muammoli aktivlarni boshqarish bo‘yicha ikkita asosiy strategiya mavjud. Birinchi strategiyaning asosida aktivlarni kelgusida sifati tushishining byudjetga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida ularni kechiktirmagan holda sotish yotadi. Bu erda past sifatlil aktivlarning ko‘p hajmda sotilishi ularning qiymatini pasayib ketishiga xizmat qilishi mumkinligi ehtimoli ham mavjuddir.

Ikkinchi yondashuvning mohiyatiga ko‘ra, ma‘lum vaqt dvomida korporatsiya muammoli kreditlar bilan ishlaydi va ularning qiymati maksimal darajaga etganda ularni asta-sekin sotadi.

U yoki bu strategiya, yoxud ikkalasining o‘rtasidagi biror kelishuv variantlaridan birini tanlab olish korporatsiya oldida turgan maqsad va vazifalar, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy holat hamda bank sohasidagi inqiroz sharoitlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. CHOSKI.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон.

2. Жеймс К. Ван Хорн, Жон М. Вахович, Основы финансового менеджмента: [пер. с англ.] – М.: Вильямс, 2016. – 1232 с.

3. Ефимова О.В. Финансовый анализ: 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во «Бухгалтерский учет», 2002. – 528 с.

4. Ковалев В., Ковалев В. Корпоративные финансы и учет. Понятия, алгоритмы, показатели. Учебное пособие М.: ПРОСПЕКТ, 2015. – 1006 с.

5. Ташматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши. Докторлик диссертацияси. -Т.: 2006. (16-бет).

6. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Финансовая академия при правительстве РФ. -4-е изд., стереотип. -М.: КНОРУС, 2008. – С. 36-37.

7. Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 18-19.

8. www.worldbank.org расмий интернет сайти маълумотлари